



Abdulla
Q a h h o r
“*Sarob*” romanii
(1907-1968)

O‘qituvchi:
Abdukadirova M.M.





Aqliy hujum savollari:

1. Abdulla Qahhor qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
2. Abdulla Qahhor ijodini qanday janrdagi asar yozishdan boshlagan?
3. Ijodkor hikoyalarini qanday yo'nalishdagi hikoyalar tashkil etgan?
4. A.Qahhor qaysi gazeta va jurnallarda faoliyat olib borgan?
5. O'g'ri" hikoyasida qanday g'oya ilgari surilgan?
6. "Bemor" hikoyasida qanday maqol epigraf qilib olingan? Sababini izohlang.



“Sarob” romani haqida



“Sarob” romani 1934-yilda yozilgan bo’lib, adib unda 1920-yillar oxiri, 30-yillarning boshlaridagi “millatchilar” deb atalgan ijtimoiy kuchning mahv etilishi, o’z g’oya va orzularini amalga oshirolmay, inqirozga yuz tutishi jarayonini badiiy jihatdan ko’rsatib bergen.

Asarda bosh qahramon – Rahimjon Saidiy, uning hammaslaklari Salimxon, Abbosxon, Murodxo’ja singari obrazlar orqali sho’rolarga qarshi olib borilgan maxfiy kurashlar gavdalantirilgan. Asarda “Saidiylar yo’li halokatli yo’ldir, bu orzular hech qachon amalga oshmaydigan ro’yo va sarobdir”, degan badiiy xulosa chiqarilgan.

“Sarob” muayyan tarixiy sharoitda, aniq hayotiy-milliy zaminda tug’ilgan; bosh qahramon ham xuddi o’sha tarixiy sharoitda milliy zaminda yetishib chiqqan shaxs; 20-yillardagi konkret ijtimoiy-g’oyaviy kurashlar ichida namoyon bo’ladi, shu kurashlar girdobida halokatga uchraydi.



“Sarob” muayyan ijtimoiy-g’oyaviy kurashlar bilan mangu ma’naviy-axloqiy muammolarni bog’liq tutash holda ifoda etish san’ati jihatidan ham ibratli. Bosh qahramon xarakteriga xos xudbinlik, individualism shaxs va insoniyat uchun xatarli illat, jiddiy ma’naviy-axloqiy muammo sifatida qadim-qadimlardan beri so’z ustalari e’tiborini tortib keladi. ...

“Sarob”da tasvir etilgan yillarga xos siyosiy-g’oyaviy ziddiyatlar va kurashlar allaqachon tarixiy o’tmishga aylangan, ammo Saidiy tabiatiga xos xudbinlik illati hali hayotda barham topgan emas, bugungi kunda ham u eng o’tkir ma’naviy-axloqiy muammolardan bo’lib qolmoqda. ...



Buzuq muhit alohida odamdagи fazilatlarni qanday yemirishi ham adabiyotning mangu mavzularidan biri. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, “Sarob”ning bizga bugungi kunlarimizda ham dolzarb qilib turgan bir muhim jihatи, asarning ichkilikbozlikka qarshi qaratilgan ruhini olaylik. Saidiyning ma’naviy tanazzuli boshdan-oxirigacha ichkilikbozlikka bog’liq holda ko’rsatiladi.

Romanda biror jinoyat yo’qki, uning maslahati ishkilik ustida qilingan bo’lmасин. Saidiy ulfatlari oldida maqtanish uchun goho gazak qilmay ichadi. Ammo ko’p ichgan sari iste’dodi so’nib, sog’ligi yemirilib boradi. Oxirida oqtutqanoq bo’lib, og’iz ko’pirishlari va Murodxo’ja uni jinnixonaga joylashtirish fikriga borganligi – hammasi mash’ум mayxo’rliklarning oqibati ekanligi romanda qadam-baqadam isbotlanib boriladi.



“Sarob”da yana bir mangu muammo – xudbinlik bilan bog’liq bo’lgan loqaydlik, iste’dod bilan bog’liq bo’lgan muhabbat. Saidiy romanning boshida ora yo’lda turadi. Bir tomonda, Ehson, Sharif, Shafrin va Kenjalar muhiti. Ikkinchи tomonda, nepman bo’lib singan otasi, sinayotgan pochchasi. Shunday ora yo’l uning ishki dunyosida ham bor. Saidiy to’q oilada oqbilak bo’lib o’sgan, jismoniy mehnatda qo’pollashgan odamlarni “to’ngak” deb yomon ko’radi, nozik ta’b aslzodalarga alohida moyillik sezadi. Ayni vaqtda, tabiat unga muhabbatga qodir qalb va iste’dod bergen. Bu insoniy fazilatlar uni katta haqiqatlar va adolatli kurashlar yo’liga olib chiqishi mumkin edi. Biroq mana shu ora yo’lda unga maslakdosh qiz –go’zal Munisxon uchrab qoladi. Munisxonning akasi Salimxon, naryoqda Abbosxon, Muxtorxon – bularning halokatli muhitidan qizni qutqaradigan odam yo’q. Ora yo’lda turgan Saidiyning o’zi ham ma’naviy najotkorga muhtoj edi.



Mana shu o'rinda ularning ikkovolta ham kuchli bo'lga xudbinlik, loqaydlik bilan ittifoq tuzadi. Saidiy o'z opasining fojiaviy taqdiriga loqayd. Yotoqxonadagi Sharifga munosabati ham loqayd, Shafringga-ku muzday sovuq. Hayotning ichki mantig'i shuki, odamlarga bo'lga loqaydlik butun hayotga ham loqayd qarashga o'rgatadi. Bu esa bora-bora o'z taqdiriga ham loqayd bo'lishga, "kel, bir gap bo'lar", deb o'zini aldashga olib boradi. U ehtiros bilan sevgan Munisxonga ham oxir-oqibat loqayd bo'lib qoladi. Bu darajadagi loqaydlik romanning oxirida uni tirik murdaga aylantirib qo'yadi. ...Kitobxon Saidiy qilgan qilmishlaridan nafratlanadi, uning halokati muqarrar ekaniga iqror bo'ladi; ayni paytda qahramon boshiga tushgan kulfatlar uchun achinadi, ayniqsa, Saidiyning go'zal ma'shuqa Munisxon qolib, tasqara Soraxonga yo'liqishi, makkor Murodxo'ja domlaning shirin so'zlariga uchib, unga ichkuyov bo'lishi shu jirkanch muhitga o'zini moslash uchun urinishi – ovutishi, bu xonadonda insonlik sha'ni, nafsoniyatining oyoq osti etilishi, xasta opasi boshiga tushgan xo'rliklar, bularning ustiga ishdagi, ijoddagi tanazzul – bular bilan tanishganda Saidiy holati iztiroblaridan o'quvchi qalbi larzaga keladi.



Asardagi asosiy obrazlar



Salimxon

Rahimjon Saidiy

Abbosxon

Munisxon

Murodxo'ja

Shafrin

Kenja



Bilimingizni sinang!



- 1. “Sarob” romani qachon yozilgan?
- 2. Romanning asosiy qahramonlari kimlar?
- 3. Rahimjon Saidiyga qanday ta`rif berasiz?
- 4. Abdulla Qahhorning yana qanday nasriy asarlarini bilasiz?
- 5. Abdulla Qahhorning so`z qo`llash mahorati haqida nimalar deya olasiz? Fikringizni yozma bayon qiling.



UYGA VAZIFA:



“Sarob” romanini o`qish. Yopiq test tuzish.

